

O`ZBEK KASHTADO`ZLIK SAN`ATI

Abduvasiyeva Sevara Abdurasulovna

*Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani 21-umumta`lim maktabi texnologiya fani
o`qituvchisi*

Annatotsiya: Maqolada o`quvchi yoshlarga asrlardan-asrlarga meros bo`lib kelayotgan xalq amaliy san`atining turlaridan biri o`zbek kashtado`zlik san`ati haqida fikr yuritilgan. Qo`l ishi hisoblangan o`zbek kashtachilik san`ati ya`ni ip va igna mo`jizasidan yaralgan bu san`at o`zida badiiylikni mujassam etgan. Buning yaratuvchisi ham, mehnatkashi ham, ijodkori ham bugungi kunda xotin-qizlardir. Xulosa qilib aytganda, milliy an`ana va urf-odatlarini saqlash, uni asrash va rivojlantirish xar bir insonning burchidir. Milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun ta`lim va tarbiya jarayonlarida ularga alohida e`tibor qaratish va ularni o`quvchi yoshlarga o`rgatish lozim.

**Tayanch so`zlar:** xotin-qizlar, meros, xalq amaliy san`ati, kashtachilik, hunarmandchilik, kiyim kashtachiligi, devoriy kashtalar, do`ppi, belbog`, qiyiqcha, kompozitsiya, naqsh, kashta, yurma, zardevor, palak, nusxa, islamiy, milliy an`ana, urf-odat.

“Asrlardan-asrlarga meros bo`lib kelayotgan xalq amaliy san`at turlari o`ziga xosligi va betakrorligi bilan mashhurdir. O`rta Osiyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan san`at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko`p sonni tashkil etadi”.

“Qadimgi ko`p qirrali xalq amaliy san`ati bugungi kun badiiy ijodiyotining shaksiz ildizidir. Bu qudratli xalqning hayoti va qiziqishlari bilan uzviy bog`liqdir. Shuning uchun ... amaliy san`at turlarini o`rganish faqatgina tarixiy rejadagina emas, balki u hozirgi zamon badiiyotini juda ham boy material bilan ta`minlaydi”.

O`zbekistonda badiiy kashtachilik san`ati xalq amaliy san`ati turlari ichida alohida o`rin tutadi. Qo`l ishi hisoblanajak, ya`ni ip va igna mo`jizasidan yaralgan bu san`at o`zida badiiylikni mujassam etgan. Buning yaratuvchisi ham, mehnatkashi ham, ijodkori ham xotin-qizlardir.

Qadimgi turon xalqlari yaratgan madaniy meros boy va rangbarangdir. Asrlar davomida shakllanib, mazmunan boyigan bu ma`naviy xazinaning asosiy qismini xalq amaliy san`ati tashkil etadi.

Xalq yaratgan hunarmandchilik turlarining bunday yuksak san`at darajasiga erishuvi, o`tmishdan hozirgacha uzluksiz davom etib kelayotgan izlanishlar samarasidir. Bunga tarix guvohlik beradi:

“Arxeologik izlanishlarning guvohlik berishicha ajdodlarimiz O`rta Osiyoda yarim million yildan beri yashab keladi. Xilma-xil yodgorliklarni o`rganish tufayli o`lkamiz zaminida hunarmandchilik- jismga ishlov berish jarayoni tosh asridayoq boshlangan”.

“Kashtachilik bilan o`tgan asrda hamma xonadonlarda shug`ullanishgan... deyarli barcha xotin-qizlar to`quv ishlarini bajara olganlar”.

Xonadon ahli avvalo o‘zlari yashayotgan uyning bezalishiga ahamiyat berib, so‘zana, zardevor, tokchapo‘sh, umuman uy bezakli buyumlarni, uning tuzilishi, hajmi, hoshiyalarning kompozitsion tuzilishi jihatidan me‘morchilikka uyg‘unlashtirganlar. Chunki kashtalar uy devorlarining ma‘lum tomonlariga moslashtiriladi. O‘shanga asosan mat ova uning rangi, so‘zanadagi hoshiya va naqsh gullari belgilanadi. Bu holat shak-shubhasiz xona ichini bezaydi, uning chiroyiga chiroy qo‘shadi. Shu jihatdan kashtachilik san‘ati me‘morchilik san‘ati bilan uzviy bog‘lab, o‘rganishga asos bor. Yana muhim tomoni, kashtachilikning asosiy vazifasi, xalq xonadoning ichki bezagi, asl buyumidir.

Demak, hayotiy shart-sharoit, kundalik ehtiyoj, xalqning urf-odatlarini, qolaversa, avlodlardan-avlodga o‘rgatilib kelinishlar natijasida kashtachilik keng rivoj topdi.

“Kashtachilik san‘ati O‘zbekiston tarixidan va hozirgi zamonimizda ham o‘z qadriyatini yo‘qotgani yo‘q. u hamon avvalgidek gurkirab yashnab kelayotir. U hozirgi zamon xalqining sevimli amaliy san‘ati va kundalik ehtiyojidir.”

Qadimda va hozirda ham o‘zbek xonadoni to‘yi kashtasiz o‘tmaydi. Kelin sepi-yu, quad-andalarga atalgan sovg‘alarining ko‘pchilligi kashtachilik buyumlari hisoblangan. Hatto ko‘pchilik joylarda kashta hoshiyalariga, buyumlarning ba‘zi o‘rinlarga ilohiylashtirilgan so‘zlar, istaklar bitilgan. Ba‘zan parranda, predmetlardan ham ramziy ma‘nolarda foydalanilgan.

Xalqimiz ana shunday ma‘naviyatimizning qadri bo‘lmish amaliy san‘at olamining yaratuvchisi bo‘libgina qolmay, uni ardoqlab, nasillarni boy merosdan bahramand etuvchi kishilar hamdir. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, yaqin yillargacha o‘zbek amaliy bezak san‘ati, uning nodir asarlari, xalq ustalarining mehnati, san‘ati, shu san‘atga xos maktablar, har bir sohaning o‘ziga xosligi-yu, uslublari unitila borilib, izzatli yo‘qolib ketish xavfi bor edi. Shukurlarki, daho xalqning aql-zakovati, yaxshilarning say-harakatlari tufayli bu borada ezgu ishlar amalga oshirildi.

O‘zbek to‘y-hashamlarida kashtachilik muhim o‘rin tutgan. Qadimda O‘zbekistonda kashtachilik buyumlari asosan to‘ylarga atab tikilgan, kashtachiliksiz biron-ta ham to‘y o‘tmagan. Shuning uchun ko‘pchilik joylardagi kashtachilik hoshiyalari ilohiylashtirilgan, ikki yoshni balo-qazolardan asraguvchi vosita sifatida tipiklashtirilgan.

San‘atshunoslar o‘zbek kashtado‘zlik san‘atini asosan ikki davrga bo‘lishadi: qadimiy-yani XX asr boshlarigacha va undan keyingi davr. Har bir davrning o‘z xususiyatiga ega kashtachiligi bo‘lgan. Undagi xususiyatlarni yerlik xalqning o‘ziga xoslik tomonlari va muhimi, qaytarilmas san‘ati nuqtayi nazaridan baholash lozim.

Kashtachilik –kashta tikish kasbi. Amaliy bezak san‘atining keng tarqalgan qadimiy turi bo‘lib, asosan ayollar tomonidan bajariladi. Kashta qo‘lda va mashinada tikiladi. Kirpech, dorpech, so‘zana, choyshab kabi badiiy buyumlarni kashtado‘zlar tayyorlaydilar.

Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda bosma, chok, Samarqand, Buxoro, Nurotada yo‘rma chokda tikiladi. Kashtado‘zlar asosan islamiy naqshni (matoni hoshiyalashda ham) qo‘llaydilar.

Naqsh mujassamotini kashtado‘zlarga maxsus xalq amaliy san‘ati ustalari chizib beradilar. Shu sababli kashta ganjkorlik, naqqoshlik naqshlariga o‘xshab ketdi. Kashtado‘zlikda eng keng tarqalgan choklar — popur, iroqi, iltok, chamak, baxya, yo‘rma, xomduzi va boshqalar.

«Kashtachilik bilan o‘tgan asrda har bir xonadonda shug‘ullanishgan. O‘zbekiston badiiy hunarmandchiligi bilan shug‘ullanuvchi taniqli olim O. A. Suxarevaning ta’kidlashicha, «revolutsiyaga qadar deyarli hamma xotin-qizlar tikuv ishlarini bajara olganlar».

Kashtachilikda xoh u so‘zana, zardevormi, tokchapo‘shmi, awalo uning shakli, hoshiyalarning kompozitsion tuzilishi jihatidan arxitekturaga tobe bo‘lgan, negaki to‘qilajak kashtalar albatta, xona devorlarining ma’lum tomonlariga o‘chab shakl olinadi. Shu jihatdan ba’zi kashtalar arxitektura bilan uzviy bog‘lanib, xona ichini bezaklash, xonani ko‘rkamlashtirishga xizmat qilgan. Kompozitsiya tuzilishi hoshiyalar ketma-ketligi, ranglari o‘sha tanlangan joyga moslashtirilgan. Hatto gilamlar shu taxlitda uy bezagining bir turi bo‘lgan. Demak, kashtachilikning birinchi galdagi ahamiyati xalq xonadonining ichki bezagi, ashyosidir. Hozirgi zamon kashtachiligidan o‘zbek xalq xonadonlari, muzeylar, ma’muriy binolarning ichki bezagi sifatida foydalanilmoqda. Kashtachilik san‘ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O‘zbek xalq ustalari qo‘llari bilan tikilgan pech, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya, Hindiston, Afg‘oniston, Turkiya vai boshqa xorijiy mamlakatlar talabi asosida ishlab chiqarilib, boshqa mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Kashtachilikning kompozitsion hoshiyalarida O‘rta Osiyo qadimgi ustalari san‘atidan meros qolgan devoriy naqshlar, yog‘och va ganch o‘ymakorligidagi detallardan foydalanilgan. Natijada kashtachilik o‘zining rivojlanish jarayonida birmuncha murakkablashib bordi.

«Kashtachilik san‘ati o‘z qiymatiga, tiliga, texnikasiga, qolaversa, alohida san‘at sifatida yuzaga keldi. U endi ganch, yog‘och o‘ymakorligi va devoriy naqshlar san‘atidan tubdan farq qiladi. Hatto ularni o‘rnini ham bosa olishgacha borib yetdi. «Kashtachilik san‘ati O‘zbekiston tarixidan va hozirgi zamonda ham o‘z qadr-qimrnatini yo‘qotgani yo‘q. U hamon avvalgidek gurkirab, yashnab kelayotir va hozirgi zamon xalqining sevimli amaliy san‘ati va kundalik ehtiyojidir».

O‘zbek kashtachiligi asosan 2 turga bo‘linadi: kiyim kashtachiligi va devorga osiladigan kashta turlari.

Kiyim kashtachiligi: (do‘ppi, belbog‘, qiyiqcha, ko‘ylak, xotin-qizlar yeng ko‘ylagi va boshqalar.)

Bular qadimda juda keng qo‘llanilgan bo‘lsa, hozir kam hollarda qo‘llaniladi.

Devoriy kashtalar: hozir ham avvalgidek o‘zbek xonadonining bezagi bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston kashtachiligi qadimiy amaliy san’atning yorqin namunasidir. Uzoq yillar matolarda jilo va jozibasini topgan turli naqshlar hamon respublikaning ijodkor xotin-qizlari-yu, qalamkashlarining o‘lmas san’ati, mahoratidan dalolat beradi.

Sa’y-harakatimizning asl maqsad-muddaosi ham asrlar osha daholari tafakkuridan yaratilgan san’at asarlaridan bahramand ho‘lish, ulaming muqaddas ishlarini tinmay davom ettira borib, keltusi avlodlar ruhiga-ruh, ma’naviyatiga-ma’naviyat qo‘shishdir.

Kashtachilikda kompozitsiya tuzishda chizmakashlar asosiy rol o‘ynaydi, ularning hayotiy tajribalari, dunyoqarashlari va sezgisi hamda avloddan-avlodga kashtachilik an’ana sifatida o‘tib kelayotganini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chizmakash, albatta, o‘z maktabiga tanish bo‘lgan nusxa va kompozitsiyalarni an’anaviyligini davom ettirib kelaveradi.

Kompozitsiya lotincha «Compositio» so‘zidan olingan bo‘lib, to‘qish, tuzish, bir-biriga ma’lum tartibda joylashtirishni anglatadi. Kompozitsiya tasviriy san’atda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tanlangan obyekt, natura va hokazoni ma’lum o‘lcharndagi mato, karton va boshqa materiallarga to‘g‘ri, aniq, «chiroyli» joylashtirishdan iborat.

«Kompozitsiya o‘quv fani ijodiy ta’limning yuqori cho‘qqilaridan biri bo‘lib, san’atkorning ichki dunyosi, borliqni, uning go‘zalligini kompozitsiya qonuniyatlari orqali idrok qila olish, tasavvur etish va albatta, umuminsoniy tan olingan haqqoniy san’at asarlarini asrab-avaylash va qadrlashni o‘rgatadi».

Kashtachilikda ishlatiladigan kompozitsiyalar orasida «qalqon» (tobadoni) va «nishon» kompozitsiyalari juda qadim bo‘lib, hozirda ham keng qo‘llaniladi.

«Qalqon» kompozitsiyasi qadimiyroq, uning ildizlari ko‘chmanchi qabilalar bilan bog‘lanadi, shuningdek, Jizzax, Samarqand, Nurota an’anaviy kashtachiligida yetakchi o‘rinni egallab keladi. Bu kompozitsiya xalq tomonidan yaratilgan turli rivoyatlarda asosiy mavzu bo‘lgan yovuz ruhlardan asraydi deb ishoniladi, ikkinchi qarashlarga ko‘ra esa kompozitsiya turii qabilalarning «Urug‘ tamg‘a»si deb hisoblanadi. Ba’zi qarashlarga ko‘ra «jang qalqoni»ning ramziy tasviri ham deb talqin qilinadi.

Keyinchalik qalqon (tobadoni) da «chindixayoli nukdor», «guli xashtarak», «kosagul», «bibishak», «zomuchagul», «oli- chaki sarzor», shuningdek «surati oftoba», «murg‘oba» ishlatilgan. Bunda naqsh maydonida ikkita tor va bitta keng hoshiya ishlatilgan. Ular «obi» bilan chegaralanib «du so‘zana» choki ishlatilgan. Chekkadagi hoshiya «ko‘ri labi daxon» deb nom- tangan, «shobarg»lar orasida «seta chindixayol» va «safsar» joylashgan. O‘rta hoshiyada esa nozik shoxli «muqchagul» kashtalangan. Ular o‘rtasida, kashta maydonida to‘pbarggullar tikilgan.

Kompozitsiyadagi yirik qalqon avvaliga to‘g‘ri chiziqlardan hosil qilingan bo‘lsa, keyinchalik kashtachilikda o‘simlik navdalari, ko‘pchilik hollarda esa barglardan tashkil topgan. Ihinda esa mazkur kompozitsiyaning ikkinchi bir talqini kelib chiqadi va u kompozitsiya mohiyatini butunlay o‘zgartirib yuboradi. Ya’ni, uni o‘simliksimon (islmiy) naqshlar va gullardan lashkil topgan qalqonsimon kompozitsiya sifatida talqin etish mumkin

bo‘lib qoladi. Bunda qalqonni hosil qiluvchi navda yoki barglar orasidagi gullar, yoki barglar orasidagi turli mevalar tasviri «jannatning yerdagi ramzi» ma’nosida keladi.

«Nishon» kompozitsiyasi esa dastlab koinot jismlarini, keyinchalik islom mafkurasini o‘zida aks ettirgan. Aynan ikkinchi mohiyatiga ko‘ra qo‘lyozmalarni bezatishda ham qo‘llanilgan. U o‘zida jannat bog‘ini namoyon-etadi, deyiladi.

Dastlabki talqinga ko‘ra aniqlik kirgizadigan bo‘lsak, bu turdagi kompozitsiya asosida quyosh, oy, yulduzlarning mavhumiy shakllari yotadi. Mazkur kompozitsiyani kashtado‘z osmon jismlari deb talqin qilgan holda tikkanda, asosan, «yo‘rma» chokdan foydalanilgan. Bu turdagi kompozitsiya Toshkent, Jizzax hududida «Palak» deb atalib, yirik shakldagi koinot jismlari bilan bezatiladi va bunda «falak», ya’ni osmon nazarda tutiladi. Samarqand, Surxondaryoning ayrim joylari va Tojikistonda «palak» atamali kashtachilik buyumi o‘zida poliz ekinlari va ularning nozik tanalari shakllantirilgan manzarani aks ettiradi. Palakning shakli juda katta bo‘lganligi bois u bo‘laklarga bo‘lib tikilgan va keyin birlashtirilgan.

Buxoro, Nurota, Farg‘onaning ba’zi tumanlari, Samarqandl hududlarida asosan yirik so‘zanalar va nimso‘zanalarda ishlatiladigan «nishon» kompozitsiyasi o‘z shaklu shamoyilida islom mafkurasini talqin qiladi. Unda markaziy nishon atrofi turli gulqatorlar yoki gulbutalar bilan bezatilishi mumkin. O‘simliklarning egiluvchan tanalari hamda barglar kompozitsiyadaj yordamchi va jozibadorlik kayfiyatini beruvchi unsur bo‘lib xizmat qiladi.

Nishon mansub naqshlardan biri — «chor shoxu yak moh» (to‘rt shox va bir oy) deb ataladi. Shoxlar to‘rttadan ko‘p bo‘lishi ham mumkin, lekin kompozitsiya mohiyatini ochib beruvchi to‘rtta shox burchakka qaragan tarzda joylashtirilgan, o‘rtada sakkiz qirrali nishon. Markaziy nishon ichida sakkizta to‘pbarggul bo‘lishi mumkin. Ko‘pchilik mualliflar bu gulni gulsafar va gulbaxmal deb aytishadi.

Nishon kompozitsiyasi asosida «buta», shox, «chindaxayol», «gulibaxmal», «gulisafar» singari naqshlar ishlatilsa, hoshiyalarda asosan, «zomichagul», «kord», «qilichak» singari naqshlar qo‘llaniladi.

«Kashtachilik kompozitsiyasi buyumning markaziy va hoshiya qismlarini aniq ta’kidlab turadi. Yirik bezakli so‘zanalarda markaziy qism va hoshiya (ziy, jiyak) birgalikda yaxlit badiiy kompozitsiyani vujudga keltiradi. Markaziy maydon va hoshiyalarni o‘zaro munosabatlari turlicha bo‘linishi mumkin. Ko‘pchilik yirik kashtalarda asosiy naqshli mavzu markaziy qismda o‘z yechimini topadi, bu paytda hoshiya namoyonga tugallik baxsh etib tuaivchi zaruriy unsur bo‘libgina xizmat qila oladi. Biroq shunday kompozitsiyalar bo‘ladiki, kashtado‘z hoshiyaning bezakdor va bejirim bezalishi bilan tugal kompozitsion yechimga erishadi. Mumtoz turdagi hoshiya bir- biridan ajratilgan uchta — o‘rta, asosiy (keng) va yordamchi (chekka ingichka) yo‘lakdan tashkil topadi.

Kashtaning asosiy maydon kompozitsion yechimi bir necha uslubda tashkillashtirilishi mumkin:

- markazi alohida ajratilgan yopiq turdagi kompozitsiya vii unga munosib tarzda to‘rtburchakli mavzu (asosiy tur) xnlq orasida u «chor shoxu yak moh» (to‘rt shox va bir oy) dcyiladi;

— juda kam uchraydigan bo‘ylama o‘q bo‘ylab simmetriya Uirzda o‘tuvchi kompozitsiya, ko‘proq markaziy maydonda joylashtiriladi;

— rombsimon, kvadrat yoki ko‘pburchakli panjarali kompozitsiya, ko‘pincha tishli barglardan tashkil topadi. U O‘rta Osi- yoda qadimdan mavjud bo‘lib kelgan va xalq tilida «tobadoni» (panjarali) sifatida talqin etiladi;

— buyum fonida shaxmat tarzida joylashtiriladigan alohida gulli mavzu;

— markaziy maydon bo‘ylab joylashtiruvchi, gul butalar- dan tashkillashtirilgan kompozitsiya, ba’zi burama poyalardan iborat bo‘ladi.

Ma’lumki, qadimdan kashta sehri — jodu xususiyatiga ega bo‘lib, ayollarni yomon ko‘zlardan va insu jinslardan saqlovchi vosita sifatida qo‘llanilgan. Shuning uchun kashtado‘zlar kash- talarni yaratar ekanlar o‘zlarining mehr-muhabbatlari va damning nazmiy talqinlarini unga jo qilganlar. Har bir naqsh ma’lum bir ramziy ma’no anglatib, asosan borliq bilan uzviy, qisman balo-qazolardan saqlovchi tumor vazifasini o‘tagan.

- Ko‘pchilik kashtachilik buyumlarning marosimlar amaliyotida ishlatilishi buning tasdig‘idir. Kashtalar naqshlarini bir necha guruhga ajratamiz:

— ramziy-alomatli mavzular; ..

— o‘simliksimon;

— girihiy (handasaviy);


— hayvonlar olami (zoomorf uslubi);


— antropomorf (odam tasvirili) mavzular;



— maishiy hayot buyumlari va epigrafik (yozuvli) naqshlar.

Sharq xalqlari san’ati naqsh mohiyati — qadimdan odamlarning borliq haqidagi taassurotlarini mujassamlashtiradigan belgi-ramzlarni o‘ziga xos tizimini namoyon etadi. Kashta naqshlari asosida koinot (bizni o‘rab turgan olamni eslatuvchi bo‘ladimi, o‘simliklar va hayvonot dunyosi bo‘ladimi, bezakl va xo‘jalik buyumlari yoki xalqning etnik tarixi bilan bog‘liq muhr (tamg‘a) va urug‘ belgisi singarilar bo‘ladimi, mavjud olam tasviri yotadi.

Xalq ustalari asl san’at xazinasiga mansub kompozitsion jadvallar va naqshlar unsurlarini o‘zlashtirgancha, ularning boshqacha tus olishida, ya’ni «moddiy» ahamiyat kasb etishda o‘z ulushlarini qo‘shadilar. Ular hayot tarzi, tevarak-muhit va maishiy turmush unsurlariga tayanadilar. Masalan, gulli kompozitsiya ona-tabiatni gullab yashnashini gavdalandiruvchi ham bo‘lishi mumkin.









XULOSA

O‘zbek xalq amaliy san’atining ajralmas qismi boigan badiiy kashtachilik asrlar davomida kishilar ma’naviyati va ehtiyoji uchun xizmat qilib kelmoqda.

Avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelgan bu qadimiy san’at turi yillar davomida o‘z jilosini topib, ham mazmunan, ham shaklan rivojlanib bordi. O‘zbek kashtachiligi rivojlanish bosqichlarining ildizlari qadimiy davrlarga borib taqaladi. Uning uzoq o‘tmishdoshlari devoriy suratlar ekanligini tadqiqotchilar qayd qilib o‘tadilar. Bularga yaqqol misol tariqasida Varaxsha, Panjakent va Afrosiyob shahar qoldiqlarini qazishda olib borilgan ishlar natijasi namuna bo‘la oladi. San’atshunos olimlarimizdan G. A. Pugachenkova, L. I. Rempel tahriri ostida chiqqan «O‘zbekiston san’ati tarixi» kitobida ana shu xususda qimmatli ma’lumotlar bor.

Sharq badiiy tafakkurining turli asrlarida vujudga kelgan yozma asarlar, ularga bobokalon musavvirlar tomonidan yaratilgan miniatyuralarda ham kashtachilik, gilamchilikning nodir namunalarini ko‘rsa bo‘ladi.

XIV va XV asrlarda yashab ijod etgan, o‘zbek xalqining ulug‘ shoir va mutafakkirlari Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlariga musavvirlar ishlagan suratlarida ham kashtachilik namunalari saqlanib qolgandir. O‘zbek xalqi madaniyatining yuksalishida Amir Temur va temuriylar tutgan mavqe bag‘oyat ulug‘dir.

Bu ham qisqa davrni o‘z ichiga oladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bizda mavjud asarlar, qaysiki, XIX asrning oxirlariga taalluqlidir. Ikkinchi davr qariyb yuz yil. Keyingi yuz yil ichida O‘zbekiston xalq amaliy san’ati, jumladan, kashtachilik o‘zining jozibadorligini, ko‘rkini yo‘qotdi. Ulardagi tasvirlar, hoshiya va rangbarangliklar mukammal qurilma (kompozitsiya)si, tikilish uslubidagi g‘ayriy holatlar (bu yerda rus va boshqa xalqlarga xos holda igna yuritish nazarda tutiladi. — A. Q) har xil gullar, parranda, hayvonlar tasvirining go‘zal hayotiy, muhimi tabiatdagi shakllari saqlangan holda ajib detallarda jonlantirilgan ko‘rinishlarining yo‘qolib ketganligi bayon qilindi.

Kashtachilik san’ati — Respublikamiz ijodkor xotin-qizlar mehnati, iste’dodlari tufayli vujudga kelgan. Bu sohaning yuqori darajasi — XIX asr oxirigacha davom etib, asta-sekin so‘nib borgan ekan, ana shu pasayishning sabab-oqibatlari haqida oz bo‘lsada fikr yuritdik. Bu jihatdan so‘zana uchun tanlangan mato bo‘z va uning ranglari hamda ipak iplar va ularning nafis tikilishining xususiyatlarini ko‘rsatib, ishimizning ikkinchi davri bilan qiyoslandi.

Xalq amaliy san’ati turlarining ijodkorlari — bu xalqning o‘zidir. Xalq qalb qo‘ridan vujudga kelgan san’at hech qachon yo‘qolmaydi. Aksincha, ilg‘or an’analaridan ijodiy o‘rganiladi. Uning mazmundorligi, Respublikamizda mavjud kashtachilik maktablari, ish davomida Respublika viloyat, tumanlaridagi xotin- qizlarining so‘zanachiligi oilaviy san’atga aylanib kelingan va o‘rganib borilayotgan ish uslublari; shu joyning o‘tmishda va hozirda so‘zanachilik hunariga bo‘lgan munosabatlar; turli buyum, so‘zanalarda har bir maktabning rang, tasvir, shakl va mazmundorligining o‘ziga xosligi.

Shu davrgacha yaratilgan o‘zbek kashtachiligi 2 turga bo‘linadi: kiyim kashtachiligi va devorga osiladigan kashta turlari. Kashtachilik hamda so‘zanachiligimizni bugungi kunda rivojlantirish masala va muammolari xususida fikrlar yuritildi.

Shu nuqtayi nazardan «Kashtachilik maktablari» tomonidan yaratilgan badiiy dekorativ san‘atning boy an‘analariga, iste‘mol buyumlari, shu jumladan badiiy bezak buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi bo‘yicha fikrlar yuritildi.

Badiiy dekorativ kashtalar haqida ko‘plab ilmiy maqolalar va mukammal to‘plam nashr etilganligi, unda biz turli paytlarda to‘plangan ko‘p kashtalarning sanasi aniqlanganini va ularning taraqqiy etish davrlarining o‘ziga xoslik xususiyatlaridan dalolat beruvchi detallarini bilish imkonini berdi. Kashtalarning milliy rasm-rusmlarda ishlatilishi, bezak, gullarning xalq tomonidan qanday ta‘riflanishiga xos qimmatli materiallar uchraydi.

Albatta, ishning muayyan shakl va mazmuniga erishuvida shu sohaning mutaxassis, san‘atshunoslari, ularning asarlari, yo‘l-yo‘riqlaridan foydalanildi. Sa‘y-harakatimizning asl maqsad-muddaosi ham asrlar osha xalq daholari tafakkuridan yaratilgan san‘at asarlaridan bahramand bo‘lish, ularning muqaddas ishlarini tinmay davom ettira borib, kelgusi avlodlar ruhiga — ruh, ma‘naviyatiga — ma‘naviyat qo‘shishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston xalqlari tarixi, 1-jild Toshkent, “Fan nashiryoti”, 1992 yil, 3-b
2. S.Bulatov o‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati. Toshkent “Mahnat”, 1991 yil. 7-b.
3. Manbalar “O‘zbekiston so‘zanasi” kitobidan olindi.
4. Sh.Barotova “San‘at” jurnali 1998-yil № 13
5. Sh.Abdullayeva. “Kashtachilik” 76-78-b
6. A.Qodirov “Loyihalash” kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent “Sharq”, 2007.
7. Internet ma‘lumotlari.